

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:16 (67181)
2018-yil 16-aprel

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092



Poytaxtimizdagi 17-umumta'lim maktabining 5-«V» sinf o'quvchisi Mohinur Habibullayeva shaxmat bo'yicha O'zbekiston chempioni bo'ldi.

Surxondaryo viloyatida bo'lib o'tgan «Yoshlar shaxmat taxtasi» an'anaviy respublika ochiq turnirida ham ko'plab yosh iqtidor egalari g'oliblik uchun o'zaro bellashdi.

Bu haqdagi maqolalarni 7-sahifada o'qiydiz.

«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG!»

tanloviga

DILAVIY TASHABBUS

Toza ichimlik suvi, tabiiy gaz hamda elektr toki kabi bebaho ne'matlar yaxshi yashashimiz uchun juda zarur. Ulardan asrab-avaylab foydalanmasak, kelajak avlod hech qachon bizni kechirmaydi. Onamning aytishlaricha, avvallari suv mo'l bo'lgani uchun tomorqada turli sabzavotlar yetishtirgan ekan. Hozir esa ariqlardagi suv xonadonimizgacha yetib kelmaydi. Shu bois, ro'zg'orimizga kerak bo'ladigan barcha sabzavotlarni bozordan sotib olishga majburlamiz.

Xo'sh, bu muammoning oldini olish uchun nima qilish zarur? Toza ichimlik suvi, tabiiy gaz hamda elektr toki kabi bebaho ne'matlarni qanday tejash mumkin? Buning uchun, eng avvalo, nosoz jo'mraklarni sozlash, yaroqsiz quvurlarni yangilash kerak. Qolaversa, har bir xonadonga o'lchovchi asboblarni o'rnatish lozim.

Ammo bu savolga eng yaxshi javobni buvijonim berdilar: hammamizning vijdonimiz bo'lsa, ongli ravishda me'yorni unutmamak, barchasi joyida bo'ladi.

Yana bir gap: yaqinda dadam atrof-muhitni ozoda saqlash, ona tabiat musaffoligiga zarar yetkazayotgan muammolarni



bigalikka bartaraf etish maqsadida yaxshi bir taklifni o'rta qo'ydi. Ular tadbirkor bo'lgani uchun mahallamizda yelim idishlar, plastmassa buyumlar, qog'oz chiqindilar yig'adigan qabul maskani ochish kerakligini ta'kidladi. Ayni paytda bunday qabul joylari yanada ko'payib, yurtimizdagi har bir mahallada tashkil etilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

Siz-chi, aziz tengdoshim, ushbu mavzu yuzasidan qanday fikrdasiz? Keling, boyliklarimizni bolalikdan asraylik!

Avazbek BOLTAYEV,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
43-umumta'lim maktabining
3-«B» sinf o'quvchisi

Taraqqiyot tasodif emas, balki zaruratdir.

G. SPENSER

Tong yulduzi

MANASLIKLARGA BARCHA HAVASDA

Chindan

ham bugun manasliklarga

barcha havas ko'zi bilan qaramoqda.

Prezidentimiz tomonidan ma'qullangan «Obod qishloq» dasturi doirasida Jizzax viloyatining Do'stlik tumanidagi Manas qishlog'i bugun o'zgacha qiyofa kasb etgan.


Eski, nuragan binolar o'rniga zamonaviy binolar qad ko'tarib, aholining turmush tarzi yanada yaxshilandi. Dastur doirasida tumandagi 5-umumta'lim maktabi ham qayta rekonstruksiya

gi kundan shukronalikni ko'rasiz.

Maskanda sinf xonalari soni 19 ta, sinf komplekti 26 tani tashkil etadi. Yoshlarni vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash xonasi ham yangi jihozlar bilan ta'minlanib, foyesida «Jasorat» burchagi tashkil etildi. Ayniqsa, faollar va sport zallarining zamonaviy tipda ta'mirdan chiqarilishi bolajonlarimiz quvonchiga quvonch qo'shdi. Endi bu yerda o'quvchilar o'zlari qiziqqan sport mashg'ulotlari bilan bemaol shug'ullanishlari mumkin.

Shuningdek, 10–11-sinf o'quvchilarini hunar o'rganishlarini ta'minlash maqsadida, 4 ta yo'nalishga mo'ljallangan o'quv ishlab chiqarish majmuasi tashkil etildi.

Chilangarlik, duradgorlik, tikuvchilik va kompyuter operatorligi yo'nalishlaridagi ushbu o'quv xonalariga zamonaviy asbob-uskuna va stanoklar, tikuvchilik mashinalari, kompyuterlar komplekti o'rnatildi. Maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Faxriddin Sulaymonov va Yoshlar ittifoqi yetakchisi Shohsanam To'rayeva doimo o'quvchilar bilan hamnafas. Ro'za



Xolmo'minova, Azamat Yuldoshev, Xurshida Uluqmuradova, Tursinoy Xo'razova, Ozodbek Axmatov, Nilufar Isoqova, Abduhakim Ibragimov, Vohid Ochilov singari iqtidorli o'quvchilar

VATAN - AZIZ, JASORAT - MANGU!



Maktab foyesidagi «Jasorat» burchagida qishlog'imizning Vatan himoyasi yo'lida jon fido qilgan 28 nafar mard o'g'lonlarimiz haqida ma'lumotlar joylashtirildi. Bu bolalarimiz qalbida vatanparvarlik hissini kuchaytiradi, – deydi Xolbo'ta aka.

qilindi. Maktab direktori Xolbo'ta Mingjigitovning aytishicha, ushbu maktab 1966-yili tashkil etilgan bo'lib, ayni damda ikki smenada 636 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

– Maktabimizning qiyofasi butunlay yangilangan bo'ls, o'qituvchi va o'quvchilarning ham kayfiyati o'zgacha, – deydi ustoz. – Har bir ota-ona va bolalarning yuz-ko'zida bugun-



Zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan sinf xonalarida o'qish qanday maroqli!

ilm maskanimizning faxri hisoblanadi. Xullas, maqtasa maqtagudek qishlog'imizgamas, shaharchamizga kelsangiz, bularning barini ko'zingiz bilan ko'rasiz, – deydi so'zi oxirida Xolbo'ta aka. «Obod qishloq» dasturi doirasida amalga oshiriladigan ishlar hali oldinda. Maktab-u ovullari singari ko'ngillari ham obod bo'lgan manaslik o'quvchilar kelajakda yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishiga ishonamiz.

TAYLOQNING

Bugun

sizlarni ko'hna Samarqand

viloyatining Tayloq tumanidagi 14-umumta'lim maktabi o'quvchilari bilan yaqindan tanishtirmoqchimiz.

IQTIDORLI

Zamira opa Jabborova rahbarlik qilayotgan ushbu bilim maskanida 310 nafar o'quvchiga 25 nafar pedagog xodim ta'lim-tarbiya berib kelmoqda. Maktab jamoasi «Sog'lom muhit – sog'lom jamoa» tavsiyasiga tayanib ish olib boradi. Maktabning ma'naviy- ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Nilufar Jabborova maskanda o'tkaziladigan tadbir-u kechalarga bosh-qosh. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari X. Sattorova, kimyo fani o'qituvchisi M. Zaripova, ingliz tili ustози D. Salimova, ona tili fani o'qituvchisi M. Rahmatova, informatika fani o'qituvchisi A. Hakimov, texnologiya fani o'qituvchisi H. Ahmedovalar tumanda trening ustozlar hisoblanadi.

O'tgan yili maktabning «Kamalak» bolalar tashkiloti a'zolari «Kamalak» bilimdoni» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 2-o'rinni egalladi. O'zbe-

kiston yoshlar ittifoqi tomonidan tashkil etilgan velomarafonda 9-sinf o'quvchisi Sardor Yusupov tumanda 1-, viloyatda esa 3-o'rinni qo'lga kiritdi. 3-sinf o'quvchisi Xursandoy Sirojova esa Navoiy viloyatida sportning badiiy gimnastika turi bo'yicha o'tkazilgan bellashuvda 2-o'ringa loyiq topildi. Badminton bo'yicha viloyatda tashkil etilgan musobaqada F. Hamroyev boshchiligidagi maktab jamoasi 2-o'rinni zabt etdi.

2016–2017-o'quv yilida maktab yoshlarining «Bilimlar bellashuvi»-da qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlari ham chakkimas. Jumladan, 8-sinf o'quvchisi Durдона Mamatqulova ingliz tili fanidan, ona tilidan 7-sinf o'quvchisi Rayhona Orziqulova viloyatda 3-o'ringa, 6-sinf o'quvchisi Zuhra Hazratqulova 4-o'ringa, Durдона Salimovaning esa huquq fanidan egallagan bilimlari 4-o'ringa loyiq topildi.

Yuqori sinf o'quvchilari orasida o'tkaziladigan fan olimpiadalarida esa 9-sinf o'quvchisi Abbosxon Akabirov ingliz tili, Muhammad Tursunov matematikadan 2-o'rinni, Hamid Hazratqulov tarix, iqtisod fanini yoqtiradigan Dinora Azzazovaga esa 3-o'rin nasib qildi.

Eng quvonarlisi, o'tgan yili bilim maskaniga O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri Ulug'bek Inoyatov va Samarqand viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Rustam Yo'ldoshev tashrif buyurib, ilm o'chog'i «Eng obod ta'lim muassasasi» deya e'lon qilindi. Bu esa o'qituvchi va o'quvchilarga munosib rag'bat bo'ldi, desak, mubolag'a bo'lmas.

Ozoda TURSUNBOYEVA

YOSHLARI



BIZNING SODIQ DO'STIMIZ

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi»ning ijodiy xodimlari! Mana bir necha yildirki, bu gazeta yaqin hamrohimga aylangan. Uning har bir sonini sinfdoshlarim bilan intiqib kutamiz. Maqolalarim gazetada chop etilsa, sevinchim ichimga sig'maydi.



Yaqinda sinfimiz bilan «Kitob – bizning do'stimiz» mavzusida tadbir o'tkazdik. Kechada ota-onalar, ustozlar va o'quvchilar ishtirok etdi. Ushbu tadbir orqali biz yoshlar «Ertaklar saltanati»ga sayohat qildik. Buning uchun o'qigan kitoblarimiz qahramonlari obrazini yaratib, ulardan parchalar ijro etdik. Allomalarning kitob haqidagi fikrlarini yod oldik. Tadbirni men va dugonam Ozoda Hayitboyeva olib bordik. Sinfdoshlarim bilan birga Vatani, tinchlik, kitob haqida she'r aytib, qo'shiqlar ijro etdik.

Tadbir yakunida ustozimiz Sanobar opa Quryozova va maktab kutubxonachisi Rohatoy Ro'ziboyeva har birimizga kitob sovg'a qildi.

Mohichehra ATABEKOVA,
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi 19-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi

YURT OBODLIGI – KO'NGIL SHODLIGI

Bizning Imom ota qishlog'i qadim tarixga ega. Atrofimizni qo'shni Ali ota, Manak ota va Qambar ota kabi go'zal qishloqlar o'rab turadi.

Mustaqil Vatanimiz kundan kunga chiroy ochib bormoqda. Joylarda obodlik, bunyodkorlik ishlari avjida. Qishloqlarimiz go'yo jannat, dalalarimiz-u bog'larimiz biz uchun aziz, muqaddas. Bunday diyorni obod qilmay bo'ladimi? Bizning maktabimizda ham bu borada ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yon-atrofni ko'kalanzorlashtirish, ta'lim maskanini go'zal go'shaga aylantirish uchun men rahbarlik qilayotgan 3-«A» sinf o'quvchilari jonbozlik ko'rsatib, jami 200 tup bodom va 200 tup atirgul ko'chatini o'tqizdi. Zero, go'zal va obod Vatanni, uning betakror tabiatini asrash barchamizning burchimiz. Shuni aytadilar-da, yurt obodligi – ko'ngil shodligi, deb...

Odina OLIMOVA,
Andijon viloyati,
Xo'jaobod tumanidagi
12-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Bobo bilan nabira bekatda avtobus kutishayotgan edi.

Odamlar chumoliday g'imirlashardi.

Paydar-pay kelayotgan avtobuslardan bir guruh yo'lovchilar shoshib tushsa, yana bir guruh shoshib chiqadi. O'z avtobuslari kelishini kutayotgan yo'lovchilarga yo'l berib, o'zlarini chetga oladi. Bekat o'rindiqlari band. Shu bois, bobo bilan nabira yo'l chetida turishardi.

VATANING KICHIK PARCHASI

Shundoq bekat yoniga kelib to'xtagan oppoq rangli «Lasetti» mashinasidan uch nafar yigit tushib, yaqin joyda saqich, pista, sigareta va yana ul-bul narsalar sotib o'tirgan kampirdan bir necha o'ram pista harid qildi. So'ng, mashina kapotiga olgan o'ramlarni qo'yib, o'zaro gurunglashgan pista chaqa boshladi. Ular yong'oq chaqayotgan olmaxonlarga o'xshab pista po'choqlarini asfalt yo'lakka va atrofga tashladi.

O'ta zamonaviy kiyingan, qaddi-qomati kelishgan, ko'rinishidan ziyolilarga o'xshab ketadigan bu baquvvat yigitlar go'yo kim ko'p pista chaqish bo'yicha musobaqalashayotgandek, turgan joylarini bir zumda qor yoqqanday po'choqzorga aylantirdi. O'zlaricha bir gapirib, o'n kulib, tinimsiz pista chaqishardi. Bobo bu xunuk manzarani ko'rib, chidab turolmadi. Sekin yigitlarning yoniga borib, ohista tanbeh berdi. Lekin bu olifta yigitlarga yoqmadi.

– Bo'ldi, otaxon, boshqa takrorlanmaydi, – deb qo'llaridagi pistani qaytib sellofan xaltaga soldilar, ayrimlari chaqishni sekinlashtirdi.

– Bobo, nega ularga gapirdingiz? – dedi nabira hayron bo'lib.

– Ular turgan joydagi pista po'choqlarini ko'rmayapsanmi? Hamma yoqni iflos qilib tashlashdi-kul! Agar bilsang, mana shu odobsizlar oyoq qo'yib turgan va pista chaqib rasvo qilgan joy ham Vatanimizning kichik parchasi hisoblanadi, bolam. Uni mana shunday xunuk ahvolga solishga hech birimizning haqqimiz yo'q. Bu gunoh. Vatanning parchasi ham – Vatani!..

Shu payt ularning avtobusi kelib qoldi. Nabira bobosidan yana bir saboq olib, avtobusga chiqdi.

BIR MAVZUDA IKKI HIKOYA



SHOIR HIKMATI

Shoir akamiz Saдрiddin Salim Buxoriy uzoq yillar Buxoro davlat universitetida talabalarga nemis tili fanidan saboq bergan edi. U kishi bir suhbatda ushbu hikmatli hikoyani so'zlab bergandilar.

– Bir kuni avtobusda darsdan qaytayotsam, yo'lda yuqori sinfda o'qiydigan qizimni ko'rib qoldim. U sumkasi yelkasida, bir qo'lida o'ralgan qog'ozga solingan pista, ikkinchi qo'li bilan pistadan olib, zavq bilan chaqib, po'chog'ini yo'l-yo'lakay tashlab ketyapti. Uyga oldinroq kelib, uni kuta boshladim.

Qizim hech narsa bo'lmagandek, odob bilan salom berib kirib keldi. Keyin dasturxon atrofga o'tirib, birga ovqatlandik.

– Qizim, sen rahmatli bobong bilan buving ruhlarini hurmat qilmas ekansan-da. Buning ustiga muqaddas shahar Buxoroni ham yomon ko'rarkansiz. Shundaymi? – deb so'radim.

– Nega unday deysiz, dadajon? Bilasiz-ku, men bobojonim bilan buvijonimni hayotligida juda yaxshi ko'rardim. Sharif shahar Buxoromizni ham jonimdan ortiq qadrlayman, – deya qizim savolimdan hayron bo'lib, jimgina qarab turardi.

– Yo'q, sen ularni yaxshi ko'rmasan, hurmat qilmaysan. Agar gaplaring rost bo'lsa, ko'chada pista chaqib, ular yotgan tabarruk zaminga, har qadamda avliyolar orom olayotgan Buxoroning muqaddas tuprog'iga tashlamagan bo'larding, – dedim. Qizim jim bo'lib qoldi. So'ng darhol kechirim so'radi:

– Dadajon, kechiring, buni gunoh ekanligini hech o'ylab ko'rmabman. Endi hech qachon pista chaqib, ko'chaga, yo'lga tashlamayman. Bobolarim yotgan Buxoroning muqaddas yerini ko'zlarimga to'tiyo qilib asrayman...

Keyin qizimning qo'lida qaytib pista ko'rmadim. Bu voqeani u sinfdosh do'stlariga ham gapirib beribdi. Keyin o'qituvchisi menga qo'ng'iroq qilib, rahmat aytdi.

Ashurali JO'RAYEV
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist

Farzandlarimizda yoshlik chog'idan boshlab kitobga mehr qo'yish, mustaqil fikr yuritish, murakkab hayotiy vaziyatlarda to'g'ri javob topish ko'nikmasini shakllantirishimiz dardkor.

Shavkat MIRZIYOYEV

Tong yulduzi

QALBI O'TLI BILIMDON

Aziz o'quvchilar, maktabingiz kutubxonasi haqida qanchalik ma'lumotga egasiz? Yoki kitob targ'iboti bo'yicha nima ishlar qilgan bo'lardingiz? Aslida, bu savollar kitobxonlikka doir tanlov shartlari bo'lib, ularni faol ishtirokchilar qoyilmaqom tarzda uddaladi.



Poytaxtimizdagi Yunusobod Axborot-resurs markazida «Eng yaxshi kitobxon o'quvchi» ko'rik-tanlovining tuman bosqichi bo'lib o'tdi. Tuman XTB uslubchisi Suriya Husniddinova bosh bo'lgan ajoyib tanlov to'rt shartdan iborat bo'ldi. Bellashuvning 1-shartida ishtirokchilar maktab kutubxonasi va undagi adabiyotlar soni haqida yig'ilganlarga ma'lumot berdi. Ikkinchi shartda qatnashchilar shoir-yozuvchilarning hayoti va ijodi haqida so'zlab berdi.

**- Men-
ga sevimli adibim Said
Ahmad ijodi haqida ma'lumot be-
rish topshirildi. Bu yozuvchining ko'pgi-
na asarlarini sevib o'qiganman. Ayniqsa,
«Yo'qotganlarim va topganlarim» kitobidan
o'zin uchun ko'p xulosa chiqarganman, -
deydi tumandagi 51-umumta'lim makta-
bining 9-«A» sinf o'quvchisi Sar-
var Sattorxo'jayev.**

3-shartda hakamlar hay'ati raisi Mahmuda opa Valiyeva qatnashchilar bilan o'qigan badiiy asarlari yuzasidan suhbat o'tkazdi. Ushbu bosqichda Mohira G'ulomxo'jayevaning ellikka yaqin badiiy asar mutolaa qilgani ma'lum bo'ldi. Nutqi ravon Sabinaxon esa Muhammad Yusuf she'rlarini ifodali aytib berdi.

4-shartda ishtirokchilar kitob targ'iboti bo'yicha o'z taklif va mulohazalarini bildirdi. Jumladan, Sarvarbek o'zi tahsil olayotgan o'quv dargohidagi o'quvchilarning kitobxonlik darajasini o'rganib chiqqanini aytib o'tdi. Shuningdek, bu faol ishtirokchi innovatsion ishlanmasini ham taqdim etdi.

Shunday qilib, eng yaxshi kitobxon o'quvchini aniqlash fursati yetdi. Hakamlar xulosasiga ko'ra, barcha shartlarni a'lo darajada bajar-gan Sarvar Sattorxo'jayev g'olib deb topildi. 2-o'ringa esa shartlarni zamonaviy texnologi-yalardan foydalanib, slaydlar yordamida bajargan 274-umumta'lim maktabi o'quvchisi Mohira G'ulomxo'jayeva va 235-umumta'lim maktabi o'quvchisi Sabina G'ulomjonova topildi.

Sayyora QODIROVA

«FARZANDINGA KITOB SOVG'A QILAMAN»,

**deb nomlangan tadbir «Xo'p ajoyib yurtimiz bor»
degan qo'shiq bilan boshlandi.**

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 206-umumta'lim maktabining 2-«A» sinfi-da bo'lib o'tgan kechaga «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi tuman Kengashi deputati Akmal Ro'zitoyev, «Turon» axborot kutubxonasi xodimi D.Tursunmetova, shoir va yozuvchilardan Muhabbat Hamidova, Davron Rajab hamda «O'rta Masjid» mahalla faollari taklif etildi.

Mehmonlar o'quvchilarning kitob bilan do'stlashganlaridan xursand bo'ldi. Ayniqsa, olim kashfiyotchi obrazini jonlantirishga harakat qilgan Asilbek Uzoqovning chiqishi, Dovud Abdurashidovning kitoblar haqidagi

fikrlari, Dilira'no Qoraxonova, Kumush Abdulqayumova, Muzaffar Ro'zimov, Abdulaziz Qahhorov kabilarning she'r va qo'shiqlari, Umida To'rayeva, Ziyoda Nuriddinova, Oysha Rustamaliyeva, Durdona Mahmudjonova kabi zukkollarning kichik sahna ko'rinishlari barchaga manzur bo'ldi.

Ushbu sinf o'quvchilari kitobxon, gazetxon ekanliklari bilan ajralib turadi. Shu bois, sinfdagi 35 nafar o'quvchining aksariyati to'rt va besh bahoga o'qiydi. Bunda, albatta, 2-«A» sinf rahbari Dilorom opa Boymatovanning hissasi katta.



MAKTAB KUNDALIGIDAN

Ta'lim maskanimizda «Kitob buyuk ustozdir!» shiori ostida tadbir bo'lib o'tdi.

Dastlab, 5-10-sinf o'quvchilari o'rtasida «Men yurtim jamoliga qanday hissa qo'shaman?» mavzusida insholar va ijodiy bayonlar tanlovi o'tkazildi. Unda 10-sinf o'quvchisi Asilbek Yo'ldoshev o'zining mazmunli, bexato yozgan ijodiy ishi bilan g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Shundan so'ng, maktab kutubxonasida «Kitob barcha ezguliklar xazinasidir» deb nomlangan kitoblar ko'rgazmasi ochildi. Yuqori sinflar o'rtasidagi Zulfiyaxonim va Saida Zunnunova ijodiga bag'ishlangan «Sadoqatda jasorat ko'rsatgan ayollar» nomli mushoira kechasi

esa o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

Qolaversa, hafta davomida ommaviy sport turlaridan futbol, voleybol, basketbol, shaxmat-shashka va stol tenisi bo'yicha musobaqalar uyushtirildi. Bellashuvlarga 5-10-sinf o'quvchilari keng jalb etildi.

Tadbir so'nggida ijodkor o'quvchilar rag'batlantirildi.

**Dilafroz RAZZOQOVA,
Angren shahridagi 27-umumta'lim maktabi
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha
direktor o'rinbosari**

MENING O'FTOBIM

Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 3-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida «Kitobim - o'ftobim» mavzusida adabiy kecha o'tkazildi.

Kutubxonada mudirasi Zulayha opa Tulanova tashkil etgan tadbir juda qiziqarli o'tdi. Yosh kitobxonlar Xadicha G'afurova, Farida Jabborova, Muxlisa Baratova, Aziz Tulanov, Islom Muzaffarov, Diyora Qahramonovalar faollik ko'rsatib, yig'ilganlarga darsdan tashqari o'qigan ertak, rivoyat va hikoyalardan so'zlab berdi. Shuningdek, bolalar shoirlari Tursunboy Adashboyev, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab va Kavsar Turdiyevlarning ijod namunalardan o'qildi.

Ayniqsa, ijodkor o'quvchi Marg'uba Sirojiddinova Muhammad Yusufning she'rlaridan aytib berganda, barcha uni olqishladi.

Kitob bayrami kuy-qo'shiqqa ulanib, chinakam tantanaga aylandi.

Muzaffar AHMEDOV

O'zbekiston yoshlar ittifoqi tuman Kengashi hamda maktab boshlang'ich tashkiloti tashabbusi bilan Qo'shtepa tumanidagi 18-umumta'lim maktabida «Kitobim - o'ftobim» deb nomlangan ma'naviy tadbir tashkil etildi.

Kechada 1-4-sinf o'quvchilari faol ishtirok etib, o'qigan she'rlarni yig'ilganlarga aytib berdi.

Shuningdek, tadbirda Axborot-resurs markazi tomonidan «Eng faol kitobxon» nomli ko'rik-tanlov ham o'tkazildi. Bellashuvlar yakuniga ko'ra, g'oliblar faxriy yorliq va kitoblar bilan taqdirlandi. Sovg'alarni maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari M.O'rionova topshirdi.

Kecha yakunda maktab badiiy havaskorlik to'garagi a'zolari qatnashchilari baxtli bolalik, tinchlik, do'stlik haqida qo'shiqlar ijro etdi. Shu kuni maktab o'quvchilari Axborot-resurs markaziga kitoblar sovg'a qildi.

Muhammadjon MAHMUDOV

Grammar rule

«After» and «later»

Dear children, do you know difference between «after» and «later»? In general we use «after + phrase» and use «later» alone at the end of a sentence.

I'll call you later.

I'll call you after I get home from work.

Also, you can use «later + time period» explain to an unspecified time in the future.

He'll finish his exam later this week.

We'll go on vacation later this month.

Never use «after» at the end of a sentence. Instead of «after» you can use «afterwards».

- Did you go straight home after the football game?

- No, we went to the cinema afterwards.

«Than» and «then»

The words «then» and «than» look and sound similar.

We use «then» is for time:

I cut the onions, and then cooked them.

We use «than» is for comparisons:

Your porridge tasted better than my porridge.



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

PHONETIC EXERCISE

Write the words with the pronunciation [u:]

Book, boot, door, food, Thursday, true, good, cook, pronunciation, house, July, fruits, plum, juice, bloom, human, blue, mood, munch



Example: boot [bu:t], ...



Ma'mura G'ULOMOVA

Painter: Sumbula MELIMURODOVA

READ THE CARD AND WRITE THE QUESTIONS

Surname: Khidoyatova
Name: Iroda
Age: 27
Country: Uzbekistan
Job: Doctor
Family: Has 3 children

1. What is her name?
2. What is her surname?
3. _____?
4. _____?
5. _____?
6. _____?



LEARN THE NEW WORDS

Look at the pictures and match the suitable one.



Prize-1, push-..., put-... (put out the cat), puzzle-..., puppy-..., pull-..., puddle-...

Dinora ABDULLAJONOVA

AMIR TEMUR AVLODLARI

Maktabimizda «Amir Temur avlodlarimiz» deb nomlangan ochiq dars o'tkazildi. Interfaol tarzda tashkillashtirilgan ushbu dars orqali o'quvchilar ko'plab qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldi.

Bobokalonimiz Amir Temurning faoliyati bilan tanishgan bolalar ularning mardlik, jasorat va ilm-fan olamida qo'lga kiritgan yutuqlari bilan tanishdi. O'quvchilar qalbidagi faxrlanish tuyg'ularini sahna ko'rinishi, she'r va qo'shiqlar orqali namoyon etdi.

– Biz Sohibqiron haqida ko'plab qiziq ma'lumotlarni bilib oldik, – deydi 3-«G» sinf o'quvchisi Jamshidjon Ismoilov.

Dars yakunida bobomiz haqida yanada ko'proq bilimga ega bo'lishi uchun o'g'il-qizlarga «Amir Temur tuzuklari» dan yod olish vazifa qilib topshirildi.



Nargiza SAID XO'JAYEVA, Toshkent shahri, Olmazor tumanidagi 243-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

MAHORAT GULSHANI

Angren shahar 23-bolalar musiqa va san'at maktabida o'tkazilgan «Mahorat gulshani» ko'rik-tanlovi bilimli va chaqqon qizlarning iste'dodini yuzaga chiqarishga qaratildi.



Musiqa maktabining Ruxshona G'afforova, Fotima Abdusoliyeva, Madina Umarova, Ziyoda Alinazarova, Ruxshona Jo'raboyeva, Yulduz Tursunboyeva, Nilufar Mahkamova, Humora Rahmonqulova, Gulbahor Yusupova hamda Munisa Xudoyberdiyeva kabi 4–5-sinf o'quvchilari juftliklarga bo'lingan holda o'zlarining qay darajada mahoratga ega ekanliklarini namoyish etdi. Shartlarni maktab rahbari Shukurjon Norboyev, katta o'qituvchi Flyura Shigayeva, tasviriy san'at o'qituvchisi Anjelika Saledinova, Angren shahar «Nuroni» jamg'armasi qoshidagi xotin-qizlar Kengashi a'zosi Mahmuda Yo'ldosheva baholab bordi.

O'quvchi-qizlar «Mohir qo'llar», «Gullar bilan ishlash», «Dekorativ buyum yasash», «Uy vazifasi» hamda «Liboslar namoyishi» kabi shartlarda o'zlarining epchilligi, bilimini sinovdan o'tkazdi.



– Musiqa maktabimizda shunday iste'dodli qizlar borligidan juda xursandman, – deydi kuni kecha Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan «Zolotoy Feniks» xalqaro tanlovida diplom bilan taqdirlangan Shukurjon Norboyev.

– Ta'lim muassasamiz o'quvchilari xalqaro festivallarda ham muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda. Yaqinda «Zolotoy Feniks»da Asadbek Marasulov doira yo'nalishida 1-, Marjona Abduqahhorova dutor yo'nalishi bo'yicha 2-o'rinni egallab, diplom bilan taqdirlandi. Bugungi tanlovdan so'ng ularga havas qilgan o'quvchilar safi yanada kengayadi.

Tadbir yakunida musiqa maktabining iste'dodli o'quvchi-yoshlari tomonidan tayyorlangan katta musiqiy dastur yig'ilganlarga zavq ulashdi.

Nodira YORMAT qizi

ENG GO'ZAL YURT

Dunyodagi bebaho, Yurtsan, Vatanim. Yuragimda asragan, Sirli ma'danim.

Dalalaring zavq berar, Nurlini diyorga. Tog'laring ko'rkamligi, O'xshar bahorga.

Miraziz IZZATOV,
Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 54-umumta'lim maktabining 5-«G» sinf o'quvchisi

O'ZBEKISTON

Sharqdagi eng go'zal nuxtona Vatan, Sen mening borlig'im, dardkashimdirsan. Samarqand ulug' Registonlaring, Sen munis onamdek azizsan, Vatan!

Sen dunyolar ichra jannatmakonsan, Osmoni musaffo, yorug' jahonim. Sening quchog'ingda quv nab yuraman, Farzandingman sening, O'zbekistonim!

Sadoqat TO'SHPO'LATOVA,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 45-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi

ILK SHE'RIMSAN, YOSHLIGIM

Eh yoshligim, yoshligim, O'ynoqi beboshligim. Bolalarni quvnatgan, Do'stlarim, sirdoshligim.

Eh, men kezgan chog'larim, Mehr to'la bog'larim. Qir-adirlar, tog'larim, Ilk she'rimsan, yoshligim.

Orzubek USANOV,
Samarqand viloyati, Bulung'ur tumanidagi 14-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi



«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Aziz bolajonim! Odatda oilaning o'ziga yarasha odoblari bo'ladi. Hamma gap unga amal qilishda qolgan. Amal qilish deganda bolalarni nazarda tutayapman-da, chirog'im. Bilasanmi, nima uchun buvijoning seni doim: «Mening farosatli bolam», deb erkalaydi?

Birinchiidan, sen maktabingga bizdan duo olmasdan ketmaysan. Oldimizga kirmoqchi bo'lsang, o'zingni ko'rsatmay turib, assalomu alaykum, bobojon, buvijon, kirsam maylimi, deb so'raysan. Kirgandan keyin joy ko'rsatib, o'tir demaguni-mizcha, hurmatimizni qilib turasan. Huzurimizdan chiqmoqchi bo'lsang, «Chiqsam maylimi, bobojon, buvijon?» deb so'raysan. Yana hech qachon kattalardan yuqoriga chiqib o'tirmaysan. Bunga singlingni ham o'rgatgansan, uni quyida, yoningda olib o'tirasan. Ovqatlanishiga qarab turasan. Erkalik qilib, adasi yoki onasini oldiga o'taman, desa, yo'l qo'ymaysan. U ham akajonisini gapiga kiradi. Yana kattalarning oldida bundoq yonboshlab yoki oyoq cho'zib o'tirganingni ko'rmayman. Biron-bir ish buyurib qolisharmikan, deb ziyrak o'tirasan.

Yana, dadang bilan oyijoning yakshanba kunlari biroz uxlab, dam oladigan bo'lsa, uyda sokinlik bo'lsin, deb singlingni o'yin maydonchasiga obchiqib ketasan. Keyin dadang bilan oyijoningni yotoqxonasiga huda-behuda kirmaysan. Mabodo, zarurat bo'lib qolsa, eshikni taqillatasan...

Bularni bar-chasini buvi-joning senga esingni taniy boshlaganingdan boshlab o'rgatgan-da. Ha, eng katta bosh tarbiyachi buving

Erkin MALIK,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist



OILA ODOBI

bo'ladi. Baraka top-sin. Hammasi esingda qolgan va ularni bir chiroyli qilib ado etayotganingni ko'rib, quvonaman. Shuning uchun buvijoning «Farosatligim», deb erkalgani-erkalagan.

Farosat bu kishining husni, xulqidir. Falonchimi, u farosatli deyilsa bo'ldi. Boshqa ta'rifning keragi yo'q. Hayotda farosatsiz bo'lishdan Xudoning o'zi asrasin. Bunaqa odamdan yon-atrofdagilar tezda uzoqlashishga harakat qiladi. Lekin har ikkovi ham bolalikdan shakllanadi-da, bolajonim. Buning uchun uydagi kattalarning, bog'chadagi opachalarning, maktabdagi ustozlarning aytganlariga quloq solish kerak. Farosat shunday narsaki, yaxshi xulq va amal egasini topib olsa, uning atrofida aylanaveradi va uni boshqalarga ko'z-ko'z qilaveradi. Seni shundaylardan bo'lishingni Yaratgandan so'rayman.

(Davomi bor)

UYG'ONISH FASLI



«Ona tabiat qo'ynida». Manzura OLIMJONOVA, Andijon viloyati, Marhamat tumanidagi 16-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

«Sumalak sayli». Kamoliddin MARDIYEV, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 51-umumta'lim maktabining 1-«D» sinf o'quvchisi



«Ona kiyik». Nodira MURODOVA, Samarqand viloyati, Payariq tumanidagi 17-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi



«Quyuncha». Nuraziz ESANOV, Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi



OLMAXON VA CHUMOLI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Chiroyli, yam-yashil o'rmonda jonivorlar tinch-osoyishta yashar ekan. O'rmon podshosi Sherxon yirtqich hayvonlarni qattiq nazorat qilar, boshqa jonivorga ozor bermasdan yashash kerakligini qayta-qayta uqtirar ekan. Shu bois, Olmaxon qalin archazorda u shoxdan-bu shoxga tinmay sakrar va bu ishidan zavqlanar ekan. Yozda sarxil mevalar bilan oziqlansa, qishda o'zlarini g'amlagan yong'oq va danaklar bilan kun kechirarkan. Buning uchun olmaxon yoz bo'yi tinmay mehnat qilarkan.

Kunlarning birida u daraxt shoxi uchidagi yong'oqni ola-

yotganda meva bexos yerga tushib ketibdi. U mevani olish uchun yerga sakrabdi. Shu payt saf tortib ketayotgan chumolilar-



(Ertak)

ga ko'zi tushibdi. «Bular qayerga shoshayotgan ekan?» deya ularning ortidan kuzatib boribdi.

Qarasa, chumolilar keng maydonda ter to'kib, qish g'amida don yig'ayotgan ekan. Olmaxon ham yerda to'kilgan donni ko'rib, uni qo'lga olibdi.

– Eh, azamatlar, jussangiz barcha jonivorgalardan kichik bo'lsa-da, mehnatsevarligingiz butun olamga o'rnak ekan. Mehnat – mehnat keltirar rohat, deganlari shu ekan-da! – deya chumolilarning mehnatsevarligidan lol qolibdi.

Gulira'no ANVAROVA,
Toshkent shahri, Mirobod tumanidagi 294-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi

Shaxmat yoshlarimiz orasida eng ommalashgan sport turi sanaladi. Bugun mamlakatimizdagi barcha umumta'lim maktablari, zamonaviy sport inshootlarida minglab iqtidorli yoshlar «aql gimnastikasi» bilan muntazam shug'ullanmoqda. Ular erishayotgan olamshumul g'alabalar haqida eshitganimizda, qalbimiz quvonchga, g'ururga to'ladi.

Shu bois, bu galgi sport sahifamiz orqali shaxmat bo'yicha yirik musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritayotgan iste'dodli tengdoshlaringiz haqida hikoya qilishni maqsad qildik. Ishonamizki, Siz ham ulardan o'rnatib, sportni hayotingiz mazmuniga aylantirasiz.

YOSH SHAXMATCHILARIMIZ

Tailandda 2 oltin, 2 kumush va 1 bronza medalni qo'lga kiritdi.

Nodirbek Abdusattorov, Javohir Sindorov, Islombek Sindorov... Bugun bu nomlarni nafaqat yurtimiz, balki butun dunyo shaxmat ixlosmandlari ham yaxshi biladi, ularning qiziqarli va murosasiz o'yinlariga muxlislik qiladi. Quvonarlisi, bu kabi iste'dod egalarining safi yildan yilga kengayib bormoqda.

1-9-aprel kunlari Tailandning Chaingmay shahrida 8, 10, 12, 14, 16 va 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida shaxmat bo'yicha bo'lib o'tgan Osiyo chempionati farzandlarimiz orasidan yangi-yangi nomlarni kashf etdi. Nufuzli musobaqa standart, rapid, blits yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilib, unda qit'amizning 26 davlatidan kelgan 571 nafar eng sara sportchi g'oliblik uchun bahs olib bordi.

Quvonarlisi, umidli shaxmatchimiz Abdumalik Abdusalimov 16 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida rapid yo'nalishida 1-o'rinni egalladi. Blitsda 2-, standartda esa shohsupaning uchinchi

pog'onasidan joy egalladi.

12 yoshgacha bo'lgan qiz bolalar bahsida Umida Omonova blits yo'nalishida barcha raqibalarini ortda qoldirib, «Osiyo chempioni» degan sharfli nomga sazovor bo'ldi. Terma jamoamizning yana bir yetakchi shaxmatchisi Odina Olimova esa 10 yoshgacha bo'lgan tengqurlari orasida 2-o'ringa loyiq ko'rildi.

Kuni kecha Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida yosh chempionlar tantanali tarzda kutib olindi.

S. TURSINOV

SIRDARYOLIKLAR G'OLIB

Surxondaryo viloyatida «Yoshlar shaxmat taxtasi» an'anaviy respublika ochiq turniri o'tkazildi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sport hamda Xalq ta'limi vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport jamg'armasi, O'zbekiston shaxmat federatsiyasi hamkorligida

an'anaviy tarzda tashkillashtirilgan mazkur musobaqada 589 ming nafar sportchi ishtirok etdi.

Musobaqaning final bosqichi qatnashchilari uchun Surxondaryo shaxmat federatsiyasi tomonidan mahorat darslari tashkil etildi. Shuningdek, turnir ishtirokchilari uchun madaniy-ma'rifiy tadbirlar, konsert dasturlari hamda viloyatning diqqatga sazovor joylariga sayohatlar uyushtirildi.

Bellashuvlar yakuniga ko'ra, umumjamo'a hisobida 1-o'rinni Sirdaryo, 2-o'rinni Samarqand va 3-o'rinni Jizzax viloyati jamoalari qo'lga kiritdi. G'oliblarga tashkilotchilarning diplom, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi.

Shukrulla G'ULOMOV

Shaxmat bo'yicha Respublika ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar maktabida 7-17 yoshgacha bo'lgan maktab o'quvchilari o'rtasida O'zbekiston chempionati start oldi. Unda O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri Ulug'bek Inoyatov hamda Jismoniy tarbiya va sport vazirining birinchi o'rinbosari Oybek Qosimov so'zga chiqib, bo'lajak chempionlarga omad tiladi.

KUHLILAR SARALANMOQDA

Musobaqada Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahri sportchilari rapid, blits va standart yo'nalishlarida o'z mahoratini sinovdan o'tkazmoqda.

ko'tarsam, deymen.

– Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 17-umumta'lim maktabining 5-«V» sinf o'quvchisi Mohinur Habibullayeva shogirdlarim orasida eng qobiliyatli. Besh yoshidan buyon shaxmat o'ynaydi. Sakkiz yoshida O'zbekiston chempioni bo'lgan. 2017-yil Mo'g'uliston, Janubiy Koreyada o'tkazilgan



Surat muallifi: V. MYASNIKOV

Fursatdan foydalanib, Samarqand shahridagi 12-umumta'lim maktabining 3-«A» sinf o'quvchisi Akobirxon Saydaliyevni suhbatga tortdik:

– Tug'ilgan kunimda katta opam shaxmat doskasi sovg'a qildi. Ikkimiz mazza qilib shaxmat o'ynadik. So'ng, bobom meni sport to'garigiga olib bordi. Ustozim Parviz Vohidovning saboqlari bilan ko'p yutuqlarga erishmoqdaman. Shu kungacha viloyat hamda O'zbekiston chempioni bo'ldim. Kelajakda esa Osiyo chempioni bo'lib, yurtim bayrog'ini ko'klarga

Osiyo chempionatlarida ham munosib ishtirok etgan. Kelajakda Mohinur Osiyo va jahon chempioni bo'lishiga ishonaman, – deydi Ravshan aka Shukurov.

Maqolani nashrga tayyorlash jarayonida Ravshan aka Mohinurni yana bir bor O'zbekiston chempioni bo'lganligi haqidagi xushxabarni yetkazdi. Tahririyatimiz nomidan chempionni ushbu yutug'i bilan qutlaymiz.

Musobaqa 18-aprelgacha davom etadi.

Nigora ABDUNAZAROVA


Murod TILLAYEV

QORAVOYNING MEHRI

(Voqeiy hikoya)

Bolaligimda uyda mushuk, it boqqanmiz. Itni Qoravoy, mushugimizni Sariqvoy deb atardik. Bir yili ularning ikkisi ham to'rttadan bolaladi. Jonivorlarning bolalarini yer-u ko'kka ishonmay, parvarishlay boshladik.

Bir kuni nima bo'ldi-yu, Sariqvoyimiz yo'qolib qoldi. Izzamagan joyimiz qolmadi, ammo uni hech qayerdan topolmadik. Bechoraning bolalari yetim qoldi. Och mushukchalar kechgacha miyovlab yurakni ezishardi.



Nihoyat, tavakkal qilib yunglari hurpayib, ko'zleri ozib-to'zib qolgan mushukchalarni Qoravoyning uychasiga olib kirdim. Bundan boshqa ilojim ham yo'q edi...

Shu tarzda Qoravoy mushuk bolalarini asrab oldi. Endi u o'z bolalarini ham, mitti mushukchalarni ham teng ko'r-ar, hech birini xafa qilmadi. Ular birga o'ynab, erkalaniib ulg'ayishdi.

Mehr-oqibat shu qadar ulug' tuyg'u ekanini o'shanda yana bir bor his etganman.

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

Shaklning o'rta qismida kataklarning chap tomoniga «qush» so'zi bilan tugallanuvchi, o'ng tomoniga «Qush» so'zi bilan boshlanuvchi quyida ta'riflari bayon etilgan so'zlarni qatorlar bo'yicha yozish bilan topshiriqni hal eting.

Chapdan: 1. G'ozlar oilasiga mansub, yirik suv parrandasi. 2. Qarg'alar oilasiga kiruvchi parranda. 3. Qora patli cho'l burguti. 4. Yirik parranda birqozonning yana bir nomi. 5. O'zbekiston qushlarining eng kichigi. 6. Boshi katta, yassi, tumshug'i keng tun parrandasi. 7. Boyo'g'liga berilgan yana bir nom.

O'ngdan: 1. Parrandalar boqish, parvarish qilish bilan shug'ullanuvchi kishi. 2. Parrandalar boqladigan joy. 3. Yupqa xamirdan kesib, yog'da qovurilgan yegulik. 4. Amir va xonlar saroyida bosh vazir lavozimiga teng bo'lgan yirik amaldor. 5. Kekirdakning kishi yutinganda harakatlanib, ko'rinib turuvchi bo'rtig'i. 6. Chug'urchuqning harakat uzatuvchi tishli qismi. 7. Mayda tikanli begona o't.

HARFLAR JUFTLIGIDA

Endi shakldagi raqamlar juftini (birinchisi so'z, ikkinchisi harf tartibini anglatadi) yuqorida topilgan avval chap, so'ng o'ng tomondagi javoblardagi harflar bilan almashtirish orqali topshiriqni hal eting. Bunda ulardan dengiz qushlarining jamoa bo'lib uya qurgan va yashaydigan makonlari qanday

atalishini bilib olasiz.

MUAMMONOMA

Shakl atrofidagi raqamlarda qiziqarli ma'lumot yashiringan, uni quyidagi kalit so'zlar javoblari orqali bilib oling.

1. Osiyoning janubiy mamlakatlari o'rmonlarida tarqalgan boshi kokilli, to'tilarning kenja oilasiga mansub qush - 7, 1, 7, 1, 19, 11.
2. Organizmning hayotiy faoliyati uchun zarur moddalar majmui - 15, 3, 16, 1, 12, 3, 2.
3. Boshqoli g'alla ekini - 17, 11, 6, 3.
4. Maqoldan: Yer - xazina, suv - 8, 1, 15, 9, 1, 5.
5. Spirtidagi jigarrang eritmasi tabobatda ishlatiladigan kimyoviy element - 14, 4, 19.
6. Chorva mollari ozuqasi sifatida ekiladigan dukkakdoshlarga mansub o'simlik - 10, 13, 19, 1.
7. Sutkanning tovuqlar uyquga ketadigan payti - 18, 4, 12.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

→	7	1	2	1	5	13	14	7	1	2	3	2	8	*	15	1	16	1	2	
	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	3
2	*	5/8	2/5	1/2	*	1				q	u	sh			*	1/4	5/7	*	*	
1	*	7/5	*	*	2					q	u	sh					1/6	*	7	
8	*	6/5	*	3						q	u	sh				*	2/5	*	1	
2	*	3/3	*	4						q	u	sh				*	6/6	*	2	
3	*	*	5							q	u	sh					3/7	*	1	
6	*	6								q	u	sh				*	*	*	5	
4	7									q	u	sh						*	*	
*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	4	
2	2	11	12	1	3	12	*	8	2	11	3	2	10	4	9	*	1	6	5	
1	19	18	*	9	*	4	2	2	3	*	10	1	6	17	3	3	5	6	4	

OTA-ONA SUYANCHI

Ishyoqmaslik eng yomon, Odatligin bilaman. Shu bois men har doim, O'z ishimni qilaman.



Ishyoqmas bolalar ko'p Bahonalar to'qiydi. Shu sababdan ham ular, Kitobni kam o'qiydi.

Erinchoqlik qilmasdan, Siz ham ey, o'g'il-qizlar. Ota va onangizni, Suyanchi bo'lingizlar.

TOPISHMOQLAR

- Ichida ko'p-ko'p marjon, Goh shirin, gohi nordon. Bilsang top-chi, ey Eldor ... - Do'stim, topdim, bu ...



- Pisha ichi shokolad, Go'yoki ko'p marmelad. Yegansan, singlim Barno ... - Aka, topdim, bu ...

Shuhrat JO'RAYEV, Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi 33-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi